



TILDAN ORTIQCHA FOYDALANISH (REDUNDANCY) KOGNITIV TAMOYIL SIFATIDA

Askarova Maftuna To'liqin qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti 1-kurs tayanch doktoranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15493924>

Annotatsiya

Ushbu maqolada stilistikaning yangi qirralarini ochib beruvchi kognitiv tamoyillar haqida ma'lumotlar berilib, ulardan tildan ortiqcha foydalanish tamoyili tahlilga tortiladi. Ushbu kognitiv tamoyilning turli til sathlaridagi ko'rinishlari farqlanadi. Ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy diskurs parchalari misolida ushbu kognitiv tamoyil stilistik vositaning asosi sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: kognitiv tamoyillar, tildan ortiqcha foydalanish, alliteratsiya, pleonazm, anafora, ramz, paralellizm, stilistik vositalarning ortiqchaligi (convergence of stylistic devices)

Abstract

This article provides information about cognitive principles that reveal new dimensions of stylistics, focusing on the principle of language redundancy. Various manifestations of this cognitive principle at different linguistic levels are distinguished. Using examples from literary discourse in both English and Uzbek, this cognitive principle is analyzed as a basis for stylistic devices.

Keywords: cognitive principles, language redundancy, alliteration, pleonasm, anaphora, symbol, parallelism, convergence of stylistic devices.

Аннотация

В данной статье представлена информация о когнитивных принципах, которые открывают новые аспекты стилистики, с акцентом на принцип языковой избыточности. Рассматриваются различные проявления этого когнитивного принципа на разных языковых уровнях. На примерах литературного дискурса на английском и узбекском языках этот когнитивный принцип анализируется как основа стилистических приемов.

Ключевые слова: когнитивные принципы, языковая избыточность, аллитерация, плеоназм, анафора, символ, параллелизм, конвергенция стилистических приемов.

Kognitiv lingvistika kontekstida ortiqcha ma'lumot masalasi yetarlicha o'rganilmagan, garchi bir qator tadqiqotlar bu muammoni turli darajalarda yoritib kelmoqda. Ushbu tadqiqotlardan biri T.C. Gleason tomonidan olib





borilgan. Uning tadqiqotlari asosan muloqotdagi muhim funktsiyalarni o'rganadi. **Uning tadqiqotlari 3 xil funksiyasi borligini ta'kidlaydi.**

Shuningdek, uning tahlillari ikki xil til sathida yuzaga chiqishini (leksik va grammatik) ifodalaydi. Gelasanoning tadqiqoti asosan til o'rganishga bog'langan bo'lsa-da, badiiy adabiyotda stilistik vosita sifatida maqsadli ishlatilinishini ham ta'kidlagan.

T. Suchkovaning olib borgantadqiqotlarida ham tildan ortiqcha foydalanish tamoyilining til o'rganish jarayoniga aloqisini ta'kidlagan bo'lsa ham, unda kognitiv jarayonlar bilan ham aloqasi borligini tahlil qilgan. Shuningdek, uning tadqiqotlarida ham badiiy asardagi ushbu vositaning o'rni ta'kidlangan.


O'zbek tilshunosligida D. Ashurovaning ushbu sohada amalga oshirgan ishlari salmoqli bo'lib, ular orasida "Cognitive linguistics" kitoblari ushbu kognitiv tamoyillar masalasini muhokama qilgan ilmiy manbalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, ortiqcha ma'lumot tilning barcha darajalarida, jumladan, matn/diskurs darajasida namoyon bo'ladi. Qayta takrorlash, keragidan ortiq tildan foydalanish kognitiv lingvistikaning asosiy kategoriyalaridan biridir. Bu kontekstda ortiqcha ma'lumotning xususiyati uning maqsadli va qasddan bo'lishidir, bu esa muallifning estetik maqsadiga bog'liqdir. Biz ortiqcha ma'lumot, xususan, stilistik ortiqcha ma'lumot, kognitiv lingvistikaning ajralmas xususiyati deb hisoblaymiz, bu esa uning ifodali, estetik qiymatini oshirib, kontseptual jihatdan ahamiyatga ega ma'lumotlarni ajratishga yordam beradi. Ushbu nuqtai nazarni tasdiqlovchi dalil, ortiqcha ma'lumotning funktsional ahamiyati bo'lib, empirik material tahlili orqali kognitiv lingvistika kontekstida turli stilistik, pragmatik, kognitiv va ijtimoiy madaniy funktsiyalarni bajaradi.

Avvalo, tildan ortiqcha foydalanish aynan nimani anglatishiga e'tibor qaratsak. Bizning fikrimizcha, bir xil fikr yoki ma'noni takrorlaydigan so'zlar yoki iboralar ishlatish tildan ortiqcha foydalanish hisoblanadi. Bu zero ko'pgina sohalarda muammo bo'lsada, bizning badiiy asarlar talqinimizda esa muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu takrorlar faqtagina bir so'zning takrori bo'libgina qolmay, balki keragidan ortiq bir fikrning lingvistik birliklar bilan ifodalanishi hisoblanadi.

Quyidagi badiiy dikurs parchalari orqali esa ushbu kognitiv tamoyilning bir qancha stilistik vositalarning asosi bo'la olishini ko'rishimiz mumkin.





Ushbu vositalarning voqealanishi badiiy diskursda ma'lum ko'zlangan maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, ularning misollarini quyidagi badiiy parchalar orqali tahlil qilamiz, hamda bu tahlillar ikki til. Ingliz va o'zbek tillari, qiyosida olib boriladi.

Birinchi vosita anafora. Bunda bir xil so'z yoki iborani ketma-ket qism yoki jumlar boshida takrorlashni o'z ichiga oladigan ritorik qurilma. Ushbu texnika ta'kidlashni yuzaga chiqaradi va kuchli emotsional javoblarni keltirib chiqarishi mumkin. Charles Dikkensning "A tale of two cities" nomli asarida quyidagi parchada yaqqol anaforani ko'rishimiz mumkin:

"It was the best of times, it was the worst of times, it was the age of wisdom, it was the age of foolishness, it was the epoch of belief, it was the epoch of incredulity, it was the season of Light, it was the season of Darkness..."¹

Ushbu parchadabi har bir jumlaning bir xil birlik va gramatik struktura "it was" orqali ifodalanishi ritmik ohangni yuzaga keltirib, har bir o'quvchining e'tiborini mazkur jumalarda berilayotgan qarama-qarshi fikrlarga tortadi. Bu orqali yozuvchi romanda tasvirlangan dualizmni yuzaga chiqishiga bir muncha hissa qo'shadi. Qarama-qarshi tushunchalar quyidagicha berilgan: *the best of times- the worst of times, the age of wisdom- the age of foolishness, the epoch of*



belief- the epoch of incredulity, the season of Light- the season of Darkness. Bu orqali esa jamiyatdagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar to'qnashuvi aks etadi.

O'zbek adabiyoti anaforaning yaqqol misoli she'riy parchalarda ko'proq ko'zga tashlanib, muallifning kechinmalarini ta'sirli tarzda yetkazib berishga xizmat qiladi. Quyida Zulfiyaxonimning "Bahor keldi seni so'roqlab..." nomli Hamid Olimjonning vafotidan keyin yozilgan ushbu nazira she'rda ichki kechinmalari va iztiroblarini ifoda eta olgan anaforani ko'rishimiz mumkin:

Qani o'sha kuychi, xayolchan yigit?

Nechun ko'zingda yosh, turib qolding lol.

Nechun qora libos, sochlaringda oq,

Nechun bu ko'klamda sen parishonhol?2»

"Nechun" so'roq olmoshining har bir savol boshida qayta-qayta takrorlanib kelishi bir tarafdin "bahor"ning hayratlanishi va bir noxush xabarni his qilib turib hayajonga tushayotganini aks ettirsa, boshqa tarafdin esa bahor murojaat qilayotgan shoiraning iztiroblardan unsiz, jim holatini ifoda etadi. Ushbu holatlarning she'r o'qilishda har bir o'quvchiga ichki kechinmani ta'sirchan holatda yetkazib berish vazifasini bajarmoqda.

Navbatdagi stilistik vosita esa pleonasm hisoblanadi. anaforadan farqli ravishda bunda ma'no ifodalash uchun keragidan ortiq birliklarning ishlatilinishi bilan xarakterlanadi. Bunda ifodalanayotgan fikrga qo'shimcha ta'kid, urg'u, badiiy asarda ko'zlangan muhitni yaratib berish kabi vazifalarni bajaradi. Misol uchun, Mark Tveinning "The Adventures of Huckleberry Finn" asarida quyidagi gap keltirilgan: *"He is a man who is not afraid to speak out loud."*

"speak out loud" iborasi takroriydir, chunki "speak" so'zi o'zida ovoz chiqarishni anglatadi. Buyerda "out", "loud" so'zlari esa ma'noni kuchaytirishga hissa qo'shadi. Ushbu pleonasm qahramonning jasoratini va gapirish jarayonini ta'kidlaydi va unga dramatik ta'sir qo'shadi.

Herman Menvillining "Moby Dick" asarida kitning tasviri pleonasm bilan beriladi: *"The white whale swam through the sea water."*

"sea water" birligi takroriydir, chunki bu kontekstda suvning dengizdan ekanligi tushuniladi. Ushbu pleonasm joylashuvni va okeanning kengligini kuchaytirishi maqsadida keltirilib, yanada qamrab oluvchi taassurot yaratadi.

O'zbek she'riyatida pleonasm Hamid Olimjonning "Janub kechasi" she'rida bir o'rinda uchraydi:

Sen bo'lmasang, shu och to'lqinlar

Ko'rinmasdi sira ko'zimga,





Sen bo'lmasang o'zimning ko'nglim

*Kirmas edi aytgan so'zimga.*³

Ushbu parchada “o'zimning” o'zlik olmoshi qo'llanilmaganda ham, *-im* egalik qo'shimchasi ma'lumotni va birinchi shaxs egalikni ifoda etgan bo'lardi. Ammo she'rda qahramon “ko'ngli” qanchalik qaysarlik qilganini kuchaytirish va yetkazib berish uchun pleonazmdan foydalanilgan.

Paralellizm esa tildan ortiqcha foydalanishning yana boshqa bir ko'rinishi bo'lib, bu asosan grammatik vositalar yordamida yuzaga chiqadi. Retorik vosita sifatida u bir xil grammatik tuzilmalar, iboralar yoki gaplarning takrorlanishini o'z ichiga oladi. Bu ritm yaratadi va g'oyalarni aniqroq ifodalashga yordam beradi.

Ushbu vositaning namunasi sifatida Ernest Hemingveyning “The old man and the sea” asari tahlilga tortilgan:

"He was an old man who fished alone in a skiff in the Gulf Stream and he had gone eighty-four days now without taking a fish."⁴

Qariya va uning harakatlari ta'rifidagi parallel tuzilma uning yolg'izlik va sabr-toqatini ta'kidlaydi. Ushbu takrorlanish kurash va qiyinchiliklarga qarshi bardoshlilik mavzularini yorqin ko'rsatadi.

Quyida esa Volt Vitmenning “Song of myself” nomli asarida “I” olmoshining takrorlanishi va iboralarning parallel tuzilma she'rning shaxsiy va ichki tabiatni kuchaytiradi. Bu ritm orqali o'z-o'zini anglash va bir-biriga bog'lanish tuyg'ularini ta'kidlaydi. O'quvchilarda nutq egasiga bo'lgan e'tiborni kuchaytiradi. Bundan tashqari o'z mavjudligini atrofdagi dunyo bilan bog'liq holda tariflaydi.

O'zbek adabiyotida, xalq shoiri Usmon Azimning quyidagi she'rlarida paralellizmning yaqqol misolini ko'rishimiz mumkin. She'rning nomi “O'lgin deding-Yerga ko'mding” bo'lib, bunda parallel strukturalarda ifodalangan fikrlar, qaysarlik, yengilmaslik va kurash tushunchasini yaratishga xizmat qiladi:

O'lgin deding — Yerga ko'mding — Ildiz bo'ldim.

Ko'kka otding — yo'q bo'l deding — Yulduz bo'ldim.

Tilim kesding — dilim aytdi — Rost kalima...

*Qiyin bo'ldi senga sho'rlik Dushmanim-a!*⁵

Alliteratsiya eng ko'p tarqalgan vositalardan biri hisoblanadi. Bunda o'xshash va bir xil tovushlarning yoki tovushlar yig'indisining takrori ko'zga





tashlanadi. Buning yaqqol misoli Edgar Alan Poening mashhur "The ravn" she'ridan olingan quyidagi misolda ko'rishimzi mumkin:

.....- here I opened wide

the door: -

Darkness there and nothing more.

Deep into that darkness peering, long I stood there wondering.

Doubting, dreaming dreams no mortal ever dared to dream before⁶

Shunday qilib, E. Poening she'rida tovushlar shunday tartibda joylashtirilganki, ular leksik vositalar bilan birga qayg'u, sirlilik, zulmat va tashvish hissiyotlarini yetkazadi. Bu tovushlarning ketma-ket takror kelishi ushbu hissiy belgilarni yetkazib berishga xizmat qiladi.

Bunday holat o'zbek she'riyatida ham ko'p uchraydigan tur bo'lib, Iqbol Mirzoning quyidagi she'riy misralarida tahlilga tortamiz:

"Qorako'z turnalar Qo'qonga qaytar...

Ammo sen ro'yosan, bilmayman,

Qaydasan va qachon qaytasan?

Qumdan qurgan qo'rg'onim qani?"⁷

Zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri Iqbol Mirzo she'rlarida ham alliteratsiyaning go'zal namunalari yaratilgan. Shoirning she'rlarini o'rganar ekanmiz, unda "q" tovushi orqali yuzaga kelgan alliteratsiyalar muhim rol o'ynayotganini ko'rishimiz mumkin. Yuqoridagi misralarda "q" tovushi bilan boshlanuvchi so'zlardan mohirona foydalanish orqali shoir she'rning san'atkorlik xususiyatini bir qancha darajada oshirgan va she'rdagi ritmni ham muvozanatda saqlashga erishgan. Bu alliteratsiya she'rdagi ekspressivlikni yanada kuchaytirishga xizmat qilgan.

Stilistik vositalarning asarning ma'lum bir qismida ko'proq ishlatilinishi tildan ortiqcha foydalanish tamoyilining yana bir boshqa yuzaga chiqaruvchi vositasi hisoblanadi. ushbu vositaning badiiy asardagi aksi ayniqsa 15-16-asr adabiyotida keng qo'llanilingan. Shekspirning "Romeo and Juliet" romanida quyidagi parcha ushbu tamoyilning yaqqol namunasi aks ettiradi:

"But, soft! What light through yonder window breaks?

It is the east, and Juliet is the sun.

Arise, fair sun, and kill the envious moon,

Who is already sick and pale with grief."⁸





Yuqoridagi parchada ko'zga tashlanadigan dastlabki stilistik vosita metaforadir. Juliettani quyoshga taqqoslash kuchli metaforadir. Bu, uning Romiyoga yorug'lik va issiqlik olib kelishini, sevgi va go'zallikni ramzlashini anglatadi. Shuningdek, parchada o'zbek mumtoz adabiyotida tashxis, ya'ni shaxslantirish deb nomlanuvchi, stilistik vositani ko'rishimiz mumkin. Bunda Oy "hasadgo'y" va "kasal" sifatida shaxsiylashtirilgan. Bu hissiy chuqurlik qo'shadi, sevgi kuchidan hatto osmon jismlari ham ta'sirlanishi mumkinligini ta'kidlaydi. Alliteratsiyaning namunasini ham uchratish mumkin. "Fair sun" va "sick and pale" iboralari boshlang'ich undosh tovushlarining takrorlanishi musiqiy sifat yaratadi. Bu, tildagi go'zallikka e'tibor qaratadi va parchani esda qolarli qiladi.

O'zbek mumtoz adabiyotining yorqin nomoyondasi Alisher Navoiy ijodida ham ushbu vositani ko'rishimiz mumkin. Uning "Kecha kelgumdur debon..." g'azalidan olingan quyidagi parchada mubolag'a va o'xshatish ayni bir tasvirni yuzaga chiqarishda qo'llanilganini ko'rishimiz mumkin:

Ko'zlaringdin necha suv kelgay, deb o'lturmang meni, Kim bori qon erdi kelgan, bu kecha suv kelmadi.

Ko'z yoshlarini qonga o'xshatish hijronning qanchalik yuqori nuqtaga ko'tarilganini ifodalasa, ko'zdan suv emas qon kelishini esa mubolag'a orqali eng yuqori nuqtaga olib chiqadi.

Yuqorida ko'rgan vositalarimiz orqali yuzaga chiquvchi tildan ortiqcha foydalanish tamoyili badiiy adabiyotda o'z o'rniga ega va mualliflarning maqsadli qurilmasi hisoblanadi. ushbu kognitiv tamoyilning yanada muhim o'rnini konseptual axborotni ifodalashi bo'yicha tahlillar keyingi ishlarimizda taqdim qilinadi va uning boshqa kognitiv tamoyilar kabi stilistikaning yangi darajaga ko'tarilganini ko'rsatishga xizmat qilishini tahlil qilamiz.

Xulosa qilib aytganda, tildan ortiqcha foydalanish badiiy adabiyot uchun salbiy xususiyat hisoblanmasdan, balki individual-muallif dunyoqarashini namoyon qiladi, shuningdek badiiy estetik ta'sirni kuchaytirish hamda o'quvchi e'tiborini muhim ma'lumotga jalb qilish vazifalarini bajaradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ashurova D.U. Galieva MR. Stylistics of Literary Text, Toshkent: Turon-Iqbol, 2016. 272 p.
2. Ashurova D.U. Galieva M.R. Cognitive Linguistics. Toshkent: Vneshinvestprom, 2018. 160 p.
3. Langacker R Concept, Image and Symbol The Cognitive Basis of Grammar. Berlin; New York; Mouton de Gruyter, 1991. 3 395 p.
4. Leech G. Language in Literature: Style and Foregrounding. New York: Pearson-Longman Education, 2008. 240 p.





5. Leech G.N. Stylistics and Functionalism/The Linguistics of Writing: Arguments between Language and Literature. Manchester UP: 1987. P.76-88
6. Leech G., Short M. Style in Fiction A Linguistic Introduction to English Fictional Prose. London: Longman, 1981. 402 p.
7. Ашурова Д.У. Когнитивная сущность конвенциональной и художественной метафоры: сопоставительный аспект/Вопросы когнитивной лингвистики, Тамбов, 2023. №1. С. 121-136
8. Ашурова Д.У. Научный статус стилистики в современном языкознании/Виноградовские чтения. Международный сборник научных статей. Ташкент, 2017. Вып. XIII. С.31-34
9. <https://www.gutenberg.org/files/98/old/2city12p.pdf>, 4 p.
10. <https://tafakkur.net/bahor-keldi-seni-soroqlab/zulfiya.uz>
11. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/hamid-olimjon.html>
12. <https://brainly.in/question/12064013>
13. <https://tafakkur.net/olgin-deding-yerga-komding/usmon-azim.uz>
14. [file:///C:/Users/Asus/Downloads/iqbol-mirzo-she-rlarida-alliteratsiya%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/Asus/Downloads/iqbol-mirzo-she-rlarida-alliteratsiya%20(1).pdf)
15. <https://www.litcharts.com/shakescleare/shakespeare-translations/romeo-and-juliet/act-2-scene-2>

